



MUSIQA JAMIYATNI MA'NAVIY YUKSALTIRISHNING QUDRATLI OMILIDIR.

*Abduvaxobova Nilufar Abdumannon qizi, Guliston davlat pedagogika
instituti Musiqa ta'limi yo'nalishi 3-bosqich talabasi
e-mail: abduvaxobova996@gmail.com*

Annotatsiya. Mazkur maqolada musiqa san'atining jamiyat hayotidagi o'rni, inson ruhiyati va ma'naviy dunyosiga ta'siri, shuningdek, yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyati yoritilgandir. Maqolada klassik manbalar va zamonaviy tadqiqotlar asosida musiqaning tarbiyaviy, estetik va ijtimoiy funksiyalari tahlil qilinadi. Shuningdek jamiyatimizda musiqiy didni oshirish masalalari ham mavjuddir.

Kalit so'zlar: Musiqa, jamiyat, ma'naviyat, tarbiya, yoshlar, san'at, estetik tafakkur.

МУЗЫКА ЯВЛЯЕТСЯ МОЩНЫМ ФАКТОРОМ ДУХОВНОГО ПОДЪЕМА ОБЩЕСТВА.

Аннотация. В статье рассматривается роль музыки в обществе, её влияние на психику и духовный мир человека, а также её значение в воспитании подрастающего поколения. На основе классических источников и современных исследований анализируются образовательные, эстетические и социальные функции музыки. Также поднимаются вопросы развития музыкального вкуса в нашем обществе.

Ключевые слова: Музыка, общество, духовность, воспитание, молодёжь, искусство, эстетическое мышление.



MUSIC IS A POWERFUL FACTOR IN THE SPIRITUAL UPLIFTMENT OF SOCIETY.

Abstract. This article discusses the role of music in society, its impact on the human psyche and spiritual world, as well as its importance in the upbringing of the younger generation. The article analyzes the educational, aesthetic and social functions of music based on classical sources and modern research. There are also issues of improving musical taste in our society.

Keywords: Music, society, spirituality, upbringing, youth, art, aesthetic thinking.

Kirish. Musiqa qadimdan insoniyat hayotining ajralmas qismi bo'lib kelgan. U nafaqat estetik zavq manbai, balki jamiyatda ma'naviy uyg'onish va tarbiyaning muhim vositasi hisoblanib kelgan. Har bir davrda musiqa xalq ruhiyatini, orzu-intilishlarini, g'am va quvonchlarini ifodalab kelgan. Jamiyatimizda musiqa nafaqat milliyligimizni balki bizning tariximizni ham ifoda etgan. Bugungi globallashuv jarayonida esa milliy musiqani asrash va uni yoshlar qalbiga singdirish har qachongidan ham dolzarb masalaga aylangan. Chunki hozirda barcha yosh avlodda zamonga bo'lgan zamonaviy chet el musiqasiga bo'lgan xoxish kuchlidir. Yengil yelpi hayotni ifoda etuvchi musiqalar yoshlarga yoqib bormoqdadir. Biz jamiyatimizdagi yosh avlodga o'z milliyligimizni singdirish va har tomonlama milliyligimizni chet el davlatlariga xam taqdim etishimiz mumkundir. Musiqaning insonning ruhiy olamiga bevosita ta'sir etuvchi san'at turi bo'lib, u insonni nafaqat zavqlantiradi, balki tarbiyalaydi. Asosan esa axloqiy fazilatlarini shakillantiradi. Har bir xalqning o'z milliy musiqasi, kuy-qo'shiqlari uning tarixi, turmushda kechadigan holatlarini ifoda etadigan vaziyatlari, ruhiyatining ifodasidir. Shu bois musiqani o'rganish jamiyatni, millatni tushunishning muhim kaliti hisoblanadi.



Asosiy qiladigan ishimiz musiqa san'atining jamiyat ma'naviy yuksalishidagi o'rni va ta'sirini ilmiy jihatdan asoslash hamda uning tarbiyaviy ahamiyatini ochib berishdir.

Maqolada yoritiladigan asosiy vazifalar.

1. Musiqa san'atining inson ruhiyatiga ta'sirini tahlil qilish.
2. Musiqa orqali yosh avlodda ma'naviy qadriyatlarni shakllantirish imkoniyatlarini o'rgatish.
3. Milliy va zamonaviy musiqa yo'nalishlarini uyg'unlashtirish yo'llarini ko'rsatish.
4. Musiqa ta'limining jamiyat taraqqiyotiga ta'sirini asoslab berish.

Metodologiya.

Tahlil va sintez – musiqa va jamiyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashda yordam beradi.

Tarixiy tahlil – qadimdan to hozirgacha musiqaning tarbiyaviy rolini o'rganishda va amalda qo'llashda yordam beradi.

Taqqoslash – xalq va zamonaviy musiqaning jamiyatdagi o'rnini solishtirishda,

Empirik kuzatuv – yoshlarning musiqaga bo'lgan munosabatini o'rganishda.

Yordam beradi va bularning jamlanmasida musiqaning rivojlanishi shakllanib boradi.

Musiqa inson hayotida ruhiy uyg'unlik va emotsional barqarorlikni ta'minlaydi. **Platon “Davlat”** asarida shunday degan edi:

“Musiqa — ruhni tarbiyalaydigan eng kuchli vositadir.” Deya ta'riflagan edi.



Bu fikrni buyuk alloma Abu Nasr Forobiy ham o'zining **“Musiqi ilmi haqida”** asarida tasdiqlab, musiqaning inson tafakkuri va axloqiy tarbiyasiga ta'siri haqida so'z yuritgan. Forobiy musiqa orqali inson qalbida go'zallikni his etish, uyg'unlikni sezish va hissiy muvozanatni saqlash imkoniyati mavjudligini ham ta'kidlaydi.

Zamonaviy psixologlarning fikriga ko'ra, musiqa insonning stress holatini kamaytiradi, ijodkorlikni kuchaytiradi va ijobiy kayfiyat hosil qiladi. Shu sababli bugungi kunda musiqa terapiyasi keng qo'llanilmoqda. Musiqa yoshlarning ma'naviy barkamollikka erishishida muhim rol o'ynaydi. U inson qalbida go'zallikka muhabbat, yovuzlikka nafrat, mehr-oqibat, vatanparvarlik va insonparvarlik tuyg'ularini shakllantiradi. Xususan, O'zbekiston xalq qo'shiqlari va maqom san'ati milliy g'ururimizni oshiruvchi, xalq birligini mustahkamlovchi bebaho merosdir.

O'zbekiston respublikasi prezidenti **Sh. Mirziyoyev** o'z asarlarida yoshlar tarbiyasida madaniyat va san'atning rolini alohida ta'kidlab, shunday degan:

“Yoshlarning qalbi va tafakkurida milliy g'urur, mehr-oqibat, or-nomus tuyg'ularini uyg'otishda madaniyat va san'atning, ayniqsa, musiqaning o'rni beqiyosdir.” (“Yangi O'zbekiston strategiyasi”, 2021-yil.)

Musiqa jamiyatning ruhiy sog'lig'ini mustahkamlaydi, millatni birlashtiradi. Xalq qo'shiqlari, maqomlar va zamonaviy bastakorlik namunalarida jamiyatning ruhiy holati aks etadi. Shu bois, musiqa milliy qadriyatlar va ma'naviy merosni saqlovchi vosita sifatida katta ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham yosh avlodga milliy musiqa san'atimizni singdirish va tariximizni milliy musiqamiz so'zlari orqali o'rgatishimizgaharakat qilishimiz lozimdir. Aksariyat yoshlar ko'cha hayoti yokida “Shunchaki ko'ngil xushlik”kabi musiqaga ruju qo'yishmoqda. Buni oldini olish uchun milliy cholg'ularimiz har bir O'zbekistonning yerida jaranglab turmog'I lozimdir. Bugungi yoshlar orasida musiqiy didni shakllantirish, milliy musiqani



sevishga o'rgatish, shuningdek, xorijiy musiqiy madaniyatni tanqidiy qabul qilishni o'rgatish — jamiyatning madaniy taraqqiyoti uchun zarurdir.

Buyuk bastakor V.A.Motsart shunday degan: *“Musika — yurakdan chiqib, yurakka kiradigan til.”*

Bu fikr musiqa vositasida insonlar bir-birini so'zsiz tushuna olishini anglatadi. Haqiqatan ham, musiqa til, millat va diniy farqlarni unutdiradi, insonlarni birlashtiradi. Shu jihatdan, u jamiyatdagi totuvlik, bag'rikenglik va tinchlikni mustahkamlovchi kuchli vositadir.

Bugungi kunda musiqani ta'lim jarayoniga kiritish — faqat o'quv fani sifatida emas, balki insonni tarbiyalovchi psixologik vosita sifatida ham muhimdir. Musika darslari orqali o'quvchilar o'z his-tuyg'ularini ifoda etishni, jamoada ishlashni, estetik fikrlashni va sahnada o'zini erkin tutishni o'rganadilar.

Pedagogik tajribalar shuni ko'rsatadiki, musiqa bilan muntazam shug'ullanadigan bolalar:

Diqqatni jamlashda faollashadi.

Estetik didi rivojlanadi.

Shaxsiy intizomi mustahkamlanadi.

Ruhiy holati barqarorlashadi.

Ijtimoiy muomala ko'nikmalari yaxshilanadi.

Shuningdek, musiqa yoshlarni ma'naviy jihatdan toza, ezgu fikrli, mehribon bo'lishga undaydi. Bu esa jamiyatning ma'naviy-axloqiy barkamolligiga xizmat qiladi. Musiqaning jamiyat hayotidagi zamonaviy o'rni esa hozirgi davrda axborot texnologiyalari, ommaviy madaniyat va global musiqiy oqimlar yoshlar didiga



kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli milliy musiqani targ'ib etish, yoshlarni xalq kuy-qo'shiqlariga oshno qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Davlatimizda bu borada keng imkoniyatlar yaratilgan. Xususan:

Musiq va san'at maktablari faoliyati kengaymoqda;

Yosh bastakorlar tanlovlari, "Yangi ovozlar" loyihalari o'tkazilmoqda;

Milliy maqom ansamblari faoliyatini rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda.

Bu islohotlar natijasida musiqa san'ati nafaqat madaniy hodisa, balki jamiyatni birlashtiruvchi va tarbiyalovchi ijtimoiy kuch sifatida rivojlanmoqda.

Xulosa: Musiqa san'ati jamiyat ma'naviyatining muhim tayanchi bo'lib, insonni ruhiy barkamollikka yetaklaydi. U orqali ezgulik, milliy qadriyatlar, insonparvarlik va hamjihatlik g'oyalari yosh avlod qalbiga singadi. Shu sababli, musiqa ta'limini rivojlantirish, maktab va oliy ta'lim muassasalarida musiqiy tarbiyani kuchaytirish jamiyatning ma'naviy yuksalishiga xizmat qiladi. Musiqa san'ati — insoniyatni birlashtiruvchi, qalblarni uyg'otuvchi, millatni yuksaltiruvchi kuchdir. U orqali insonlar o'z orzularini, dardini, quvonchini ifoda etadi. Shu sababli musiqa jamiyat ma'naviy hayotining ajralmas qismi bo'lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abu Nasr Forobiy. "Musiqa ilmi haqida risola." — Toshkent: Fan, 1983.
2. Platon. "Davlat." — Toshkent: O'zbekiston, 1991.
3. Sh. Mirziyoyev. "Yangi O'zbekiston strategiyasi." — Toshkent, 2021.
4. Abdullayev H. "Musiqa tarixi." — Toshkent: O'zbekiston davlat konservatoriyasi, 2018.



5. Qodirova Z. “Musiq va ma’naviyat.” — Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
6. Karimova N. “Musiq va psixologiya.” — Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
7. Mozart, V.A. “Letters and Thoughts on Music.” London, 1976.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. “Musiq va san’at maktablari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida.” 2023-yil.
9. Raximov, D. “Musiq pedagogikasi.” Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.